

**YOSHLAR TA`LIM TARBIYASI MUAMMOLARINI TADQIQ
ETISHNING ILMIY-PEDAGOGIK METODLARI**

Orzuyeva Sultanoy Bahrom qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Tel : +998-88-806-24-22

Annotatsiya: Yoshlar ta'lism tarbiyasi muammolarini aniqlash ko'rib chiqish metodlarini o'rGANISH.

Kalit so'zlar: pedagogika, tarbiya; metodlar; pedagogika; ta'sir; ta'lism jarayoni; tarbiya muammolari; rag'batlantirish; nazorat; faoliyat.

Аннотация: Изучение методов выявления и рассмотрения проблем воспитания молодежи.

Ключевые слова: педагогика, образование; методы; педагогика; влияние; учебный процесс; образовательные проблемы; поощрение; контроль; активность

Abstract: Study of methods for identifying and considering problems of youth education.

Keywords: pedagogy, education; methods; pedagogy; influence; educational process; education problems; motivation; control; activity.

Kirish qismi : Yoshlar ta'lism tarbiyasi muammolarini tadqiq etish va yechimlar topish jarayonida turli metodlardan bir yoki bir nechtasini birlashtirib foydalanish samarali natijalar berishi mumkin.

Asosiy qism. Shaxsni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish pedagogikaning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash pedagogikadagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatga doir qarash va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi

Ta'limning zamонавиy трансформатсиyаси

tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi. Insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat o'qitish tushunchasini ifoda etadi. XX asr boshlaridan qiyosiy pedagogika fani pedagogikaning alohida tarmog'i sifatida dunyoga keldi. Unda jahondagi turli xalqlarning pedagogik qarashlari va ta'lim-tarbiya tizimi qiyosiy-genetik yo'sinda bir-biriga solishtirilgan holda o'rganildi. Pedagogikaning bu tarmog'i ta'lim-tarbiya borasidagi eng ilgor usul va yondashuvlarni solishtirish, maqsadga muvofiqlarini muayyan milliy pedagogik fan va amaliyatga tatbiq qilish imkonini beradi. Mamlakatimizda hozircha qiyosiy pedagogika alohida fan sifatida shakllanmagan bo'lsada, bu borada jiddiy izlanishlar amalga oshirilgan. Odamzodning hayotiy va aqliy tajribasi ortib, turmush kechirish tarzi xilma-xillashib, mehnat taqsimoti yuzaga kelib turli fanlar paydo bo'la boshlashi bilan pedagogika ham inson faoliyatining alohida sohasiga aylandi. Ta'lim va tarbiyaga doir qarashlar tizimi shakllandi. Lekin bular darhol pedagogik nazariy tizimlar sifatida emas, balki milliy fikr tarbiyaga daxldor qarashlar, aqidalar, hikmatlar tarzida namoyon bo'ldi. Yozuv paydo bo'lishi bilan pedagogik qarashlar yozuvga ko'chiriladigan bo'ldi. Antik davrdagi mutafakkirlarning ta'lim-tarbiya borasidagi fikrlari markazida yetuk insonni shakllantirishga intilish istagi turardi. Shumer, Misr, Xitoy, Hindiston va O'rta Osiyodagi turli madaniy-ma'rifiy obidalar moddiy madaniyat namunalarigina bo'lib qolmay, o'z davridagi buyuk pedagogik meros hamdir.

Qadim zamонларда paydo bo'lган pedagogik qarashlar ko'proq amaliy xususiyatga ega bo'lsada, keyinchalik pedagogikaning alohida fan sifatida shakllanishiga ulkan hissa qo'shdi. Pedagogika insoniyatning axloq-odobi va ma'naviyatigagina emas, balki aqliy rivojiga ham hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgani sababli uning taraqqiyot darjasini jamiyatning ravnaqiga muvofiq tarzda ro'y berdi.

“Ta'lim va tarbiya nazariyasi hamda metodikasi”:

- hozirgi zamon metodika fanining nazariy asoslari bilan qurollantirish;
- pedagogik tafakkurni shakllantirish negizini yaratish;
- pedagogik fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish;

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- “Ta’limning metodik qonuniyatlari hamda tamoyillari”ga mos holda tegishli qarorlar qabul qilish;
- Hozirgi zamon ta’lim (pedagogik va axborot) texnologiyalarini bilish hamda ularni amaliyotda qo‘llay olishdan iboratdir.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yig‘indisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyatni mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi.

Odam bolasiga beriladigan tarbiya, birinchi navbatda, ilmga, fanga asoslanmog‘i, ta’limiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilmog‘i lozim. Agar tarbiya pala-partish holda savodsizlarcha tashkil etilsa, tizimli va muntazam ravishda olib borilmasa, bunday «tarbiya» inson kelajagiga, shaxsning shakllanishiga faqat zarar keltiradi. Mana shu qoidalarga amal qilingandagina ta’lim-tarbiya o‘zining pirovard maqsadiga erishishi - komil insonni voyaga yetkazishi mumkin.

Yoshlar ta’lim tarbiyasi muammolarini tadqiq etishda bir nechta ilmiy-pedagogik metodlar ishlatalishi mumkin. Quyida ularning asosiyları keltirilgan:

1. Izlanish metodi

- Bu metod muammoni chuqr tushunish va uning ildizlarini aniqlash uchun sifatli va miqdoriy tadqiqotlar o’tkazishni o’z ichiga oladi.

2. Eksperiment metodi

- O’quv jarayonida o’zgartirishlar yoki innovatsiyalar kiritish orqali yoshlar ta’lim tarbiyasi muammolarining ta’sirini o’rganish.

3. Monitoring va baholash

- O’quvchilarning holatini va natijalarini kuzatish, tahlil qilish va baholash orqali ta’lim jarayonining samaradorligini aniqlash.

4. Tahlil va muhokama

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- Muammolar ustida zamonaviy va tarixiy ma'lumotlarni tahlil qilish, guruh muhokamasi va fikr almashish orqali yangi fikrlar va yechimlar ishlab chiqish.

5. So'rovnomalar va anketalar

- Yoshlar, o'qituvchilar va ota-onalardan fikr olish uchun so'rovnomalar o'tkazish, natijalaridan kelib chiqib muammolarni aniqlash.

6. Kasalxona tadqiqotlari

- Yoshlarning ta'lim va tarbiyasi mo'ljallangan sharoitlarda (masalan, maktab, institut) qanday muammolar borligini aniqlash.

7. Falsafiy muloqot

- Falsafiy va etik masalalarni o'rganish, yoshlar tarbiyasida yondashuvlarni ko'rib chiqish.

8. Pedagogik loyiha metodlari

- Yoshlar ta'limini takomillashtirishga qaratilgan loyihalar ishlab chiqish va ularning natijalarini baholash.

9. Hamkorlik va shartnoma tizimi

- O'qituvchilar, ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikda muammolarni hal qilish.

10. Teoretik tadqiqotlar

- Yoshlar ta'lim tarbiyasi borasida nazariy manbalarni o'rganish va yangi ilmiy nazariyalarni ishlab chiqish.

Yoshlar ta'lim tarbiyasi muammolarini tadqiq etish va yechimlar topish jarayonida ushbu metodlardan bir yoki bir nechtasini birlashtirib foydalanish samarali natijalar berishi mumkin.

Xulosa:

Xulosa o'mida shuni takidlash joizki ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi natijasida milliy ong

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

mafkuraviy qolipdan qutuldi. Bu hol pedagogikaning sog'lom aql, milliy ruhiyat va an'analarga mone tarzda yo'lga qo'yilishiga imkon yaratdi. Bugungi o'zbek pedagogikasi millat ruhiyatidagi nozik jihatlarni hisobga olgan va dunyo tarbiyashunosligidagi eng so'nggi yutuqlarga tayangan holda taraqqiy etmoqda. Zamonaviy o'zbek pedagogikasida barkamol insonni shakllantirish rasmiy ravishda bosh maqsad qilib belgilangan. Bu pedagogika ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchi va tarbiyalanuvchilarning faol ishtirok etishlarini ko'zda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bolalar psixologiyasi va uni o`qitish metodistikasi Nishanova Z. Alimova G. Toshkent-2006.
2. Bolalar psixologiyasi Toshboyeva D, Sodiqova O.
3. Umumiy Pedagogika
4. Pedagogika nazariyasi va tarixi
5. B. X. Xodjayev Umumiy pedagogika nazariuasi va amaliyoti, Toshkent-2017.
6. . Hoshimov K. va boshqalar. Pedagogika tarixi. — T., O'qituvchi, 1996.Khaydarov, S. A. (2021).